

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DEFEKTOLOGIYA FANIDAN
MALAKA SINOVIDA FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN DEFEKTOLOGIYA FANIDAN MALAKA SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya maktabgacha ta'lim tashkilotlari defektologlarini attestatsiyadan o'tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli hamda baholash mezonini talablarini aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgor maktabgacha ta'lim tashkilotlari defektologlarining nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va qobiliyatlarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasiga qabul qilinadigan qarorlar asosli bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta'minlanadi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 26-maydagi PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 572-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologi mutaxassislik fanidan 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig'i taqdim etiladi va umumiy test topshirilarini bajarish uchun 90 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari*,

moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari) foydalaniladi.

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testl ar soni
1. Defektologiya fanining umumiy masalalari		
1.1. Defektologiyaning nazariy asoslari	-Defektologiyaning asosini, uning predmeti, vazifalari, prinsiplari, asosiy kategoriyalari, bo'limlari va metodlarini bilish; -fanlararo aloqadorligini tushunish; -rivojlanish nuqsonlarini tasniflash va tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lish; -Inkluziv ta'lim tushunchasini bilish.	3
1.2. Rivojlanish normasi. Rivojlanish anomaliyalari	-Rivojlanish normalarini va ularning turlarini, "anomaliya" tushunchasini, rivojlanishdagi og'ishlarning xususiyatlari va sabablarini bilish; -og'ishlarni aniqlay olish, ularning kelib chiqish tabiati va bola rivojlanishiga ta'sirini tushunish; -korreksion usullarni qo'llay olish hamda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.	3
2. Intellektual rivojlanishida buzilishlari, ruhiy rivojlanishi sustlashgan va autizm spektr buzilishlari bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash		
2.1. Aqliy nuqsonlari bo'lgan bolalar	-Intellektual rivojlanishdagi buzilishlarning (oligofreniya, demensiya va boshqa shakllar) klinik-pedagogik xususiyatlarini bilish; -ularning bilish jarayonlari o'ziga xosligini hisobga olish; -har bir yosh davrida ta'lim va tarbiyaning vazifalarini tushunish va korreksion-pedagogik ishlarni tashkil eta olish; -samarali metodikalarni qo'llay olish va moslashtirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalana olish.	4

2.2. Ruhiy rivojlanishi kechikkan bolalar	- Ruhan sust rivojlanganlikni klinik-psixologik jihatiga ko'ra turlarini bilish; - ularning korreksion ta'lim va tarbiyasini tashkil eta olish; - turli yosh davrlarida o'qitish va ta'lim vazifalarini tushunish; -samarali pedagogik metodlarni qo'llay olish va rivojlantirish hamda ijtimoiylashtirish uchun maxsus vositalardan foydalana olish.	3
2.3. Bolalarda autizm spektrining buzilishlari	-Bolalikdagi erta autizm sindromiga ega bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini bilish; -ularning bilish, shaxsiy va emotsional-irodaviy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish; -autizmga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash uchun mo'ljallangan korreksion metodikalarni bilish va amaliyotda qo'llay olish.	3
3. Logopediya		
3.1. Nutqida nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar	-Logopediya fanining predmeti, vazifalari va prinsiplari, nutq buzilishlarining sabablari va tasnifini bilish; - nutq buzilishlarining tasnifini bilish (alaliya, rinolaliya, duduqlanish, dizartriya, afaziya nutq nuqsonlari va uning shakllari); -ularning klinik, psixologik va pedagogik xususiyatlarini aniqlay olish; - tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llarini bilish; - nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda diqqat, xotira va fikrlashni rivojlantirish usullarini bilish; - turli yoshdagi bolalarda o'qitish va tarbiyalash maqsadlarini tushunish; - ushbu nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda samarali usullar va moslashtirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash.	4
4. Tiflopedagogika		
4.1. Tiflopedagogika fanining umumiy masalalari	-Tiflopedagogika fanining maqsad va vazifalari; -ko'rish buzilishlarining turlari, sabablari va oqibatlarini bilish.	2

4.2. Ko‘rish nuqsoniga ega bolalar	-Ko‘rish nuqsoniga ega bolalarning bilish jarayonlarining o‘ziga xosligi; -ko‘rish nuqsoniga ega bolalar nutqi va muloqotning rivojlanishi; -bu toifadagi bolalarda shaxs shakllanishi xususiyatlarini hisobga olish; -korreksion ta’lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xosligini tushunish; -moslashtirilgan metodikalardan foydalanish hamda maxsus texnik va pedagogik vositalarni qo‘llay olish.	4
5. Surdopedagogika		
5.1. Surdopedagogika fanining umumiy masalalari	- Surdopedagogikaning predmeti va vazifalarini bilish; -eshitish nuqsonlarining sabablari va tasnifi, eshituv analizatori faoliyatida nuqsoni bo‘lgan bolalarning asosiy toifalarini bilish.	2
5.2. Eshitish nuqsoniga ega bolalar	-ularning bilish va shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish; -eshitish nuqsoniga ega bolalar nutqini shakllantirish; -samarali metodikalardan foydalanish hamda eshitishni rehabilitatsiya qilishga qaratilgan texnik va pedagogik vositalarni qo‘llay olish. -koxlear implant bolalar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ishlarning o‘ziga xosligini tushunish.	4
6. Harakat-tayanch a’zolarida nuqsoni bor bolalar		
6.1. Harakat-tayanch a’zolarida nuqsoni bor bolalar	-Bolalarda uchraydigan bolalar serebral falaji (BSF) va boshqa harakat buzilishlarining umumiy tavsifi, harakat nuqsoni tuzilmasi hamda harakat buzilishlarining tasnifini bilish; -bu toifadagi bolalarga yordam ko‘rsatish, ularning ta’lim-tarbiyasini tashkil etish; -shaxsiy, emotsional-irodaviy va bilish sohalarining xususiyatlarini tushunish; -moslashtirilgan metodikalardan foydalanish hamda korreksiya va rehabilitatsiyaga qaratilgan maxsus vositalarni qo‘llay olish.	3
Jami:		35 ta

Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti

2-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
I. PEDAGOGIK MAHORAT		10 ta
1.1. Pedagogik psixologik kompetensiyalar	–pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; –pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, kasbiy faoliyatda zarur pedagogik qobiliyatlar, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o‘shish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; -pedagogik jarayonni loyihalash (shart-sharoit, texnologiya, o‘zaro munosabatlar) mazmunini, model loyiha–amaliyot ketma-ketligini, innovatsion texnologiyalarni joriy etish mantig‘i va bosqichlarini, ta’lim muhitini loyihalashning tayanch shartlari hamda pedagogik dizayn turlarini bilishi va vaziyatlarda qo‘llay olishi	5
1.2. Bolalar rivojlanishini qo‘llab quvvatlash	–“Ilk qadam” milliy o‘quv dasturining maqsad va tamoyillarini, 0–7 yosh davrida bolaning rivojlanish bosqichlari hamda yosh xususiyatlarini, bolaga yo‘naltirilgan va differensial yondashuv hamda o‘yin asosida o‘qitish mantig‘ini, shuningdek oraliq/yakuniy kuzatishning maqsadi va tamoyillarini hamda “rivojlanish xaritasi”ning vazifasini bilish; – bola rivojlanish dinamikasini baholay olish, rivojlantirish maqsadlarini aniq belgilash va yondashuvlarni vaziyatlarda qo‘llay olish	2
1.3. Metodik va texnologik savodxonlik	– maktabgacha ta’limda pedagogik faoliyatni loyihalashtirish asoslarini, innovatsion pedagogik texnologiya (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial ta’lim, syujet-rolli o‘yinlar, inklyuziv ta’lim, jismoniy faolligini oshirish, tasviriy va dizayn faoliyati, qurilish va konstruksiyalash mashg‘ulotlarini loyihalashtirish va boshqalar)larni bilish va faoliyatga mosini tanlay olish; – maktabgacha ta’limni loyihalash va tashkil etish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarga baho berish va natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi	3
II. KASBIY STANDART		5 ta

2.1. Kasbiy standart	–kasbiy standart doirasida umumiy qoidalar, standartning maqsad va vazifalari, pedagogga qo‘yiladigan bilim-ko‘nikma-malaka talablari, uning mehnat vazifalari, baholanadigan ko‘rsatkichlar tizimi hamda yakunlovchi qoidalar mazmunini bilishi, ularni amaliyotda qo‘llay olishi va faoliyati natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi; –kasbiy standart bo‘yicha talab etiladigan umumiy talablar, zarur bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni quyidagi yo‘nalishlarda egallashi zarur: rivojlantiruvchi ta’lim muhitini tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etish, bolalar rivojlanishini kuzatish, oila bilan hamkorlik qilish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishni bilishi, ularni amaliyotda qo‘llay olishi va faoliyati natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi.	5
-----------------------------	--	----------

Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanilishini tushunish	8
2	Qo‘llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llay olish	35
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini (raw score) hisoblash uchun har bir to‘g‘ri javobga 2 ball, noto‘g‘ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-yanvardagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 46-son Qarori
2. M.Y.Ayupova "Logopediya", "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti" Toshkent-2007 y.
3. V.S. Raxmanova "Defektologiya asoslari" (Korreksion pedagogika) Toshkent "Niso Poligraf" 2017 y.
4. M.U.Xamidova "Maxsus Pedagogika", Toshkent-2018 y.
5. D.R.Madazizova "Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari" "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent 2018 y.
6. M.R.Po'latxo'jayeva "Defektologiyaning klinik asoslari" Toshkent 2013 y.
7. L.R.Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova va boshqalar "Maxsus psixologiya" "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti" Toshkent 2013 y.
8. N.Z.Abidova "Maxsus psixologiya" (Tiflopsixologiya). Toshkent 2017 y.
9. Qodirova F. Xusnuddinova Z. "Tiflopedagogika" Toshkent "Renesans sari" 2024 y.
10. B.Usmonova, Z.Yuldasheva "Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni talaffuzga o'rgatish metodikasi" Toshkent 2014 y.
11. L.R.Mo'minova "Autizm sabablari, turlari va bartaraf etish metodikalari" Toshkent "Spectrum Media Group" 2015 y.
12. D.Nazarova, Z.Mamarajabova "Surdopedagogika" Toshkent "Innovatsiya-Ziyo" 2024 y.
13. Z.N.Mamarajabova, M.M.Abdullayeva "Daktilologiya va imo-ishora nutqi" (surdopedagogika ta'lim yo'nalishi) Toshkent 2024 y.
14. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova "Rivojlanishida nuqsoni bolgan bolalar diagnostikasi" Toshkent-2016 y.

Rus tilida berilgan adabiyotlar

1. Абаева, Г.А. Система условных обозначений в учебниках, изданных рельефно-точечным шрифтом (шрифтом брайля): метод. рекомендации / - Алматы: 2019. - 50 с
2. Ахметова, Д.З. Дети с нарушениями опорно-двигательного аппарата в инклюзивной группе: методическое пособие / В.С.Горынина, Л.А.Орешникова. — Казань: Изд-во «Познание» Института экономики, управления и права, 2015.

3. Баряева, Л.Б. Воспитание и обучение дошкольников с задержкой психического развития / Л.Б.Баряева, И.Г.Вечканова. - Санкт-Петербург: ЦЦК, 2010.
4. Волкова, Л.С. Логопедия: учебник для вузов / Л.С.Волкова. - Москва: ВЛАДОС, 1996.
5. Глухов, В.П. Дефектология. Специальная педагогика и специальная психология: курс лекций / В.П. Глухов. - Москва: МПГУ, 2017.
6. Геранкина, А.Г. Практикум по дактильной речи. Пособие для преподавателей дефектолог. фак-тов пед. ин-тов. М., «Просвещение», 1972.
7. Еремеева, И.О. Коррекционно-педагогическая работа с детьми дошкольного возраста с задержкой психического развития / И.О.Еремеева. - [Б. м.]: Дайджест, 2021.
8. Ермаков, В. П. Основы тифлопедагогики: развитие, обучение и воспитание детей с нарушениями зрения: учебное пособие для студентов высших учебных заведений / В.П. Ермаков Г.А. Якунин. - Москва: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2000.
9. Зайцева, Г.Л. Жестовая речь. Дактилология: учебник для студентов высших учебных заведений / Г. Л.Зайцева. - Москва: ВЛАДОС, 2000.
10. Катаева, А.А., Стребелева, Е.А. Дошкольная олигофренопедагогика: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2005. - 208 с.
11. Левченко, И.Ю. Особенности обучения ребенка с нарушениями опорно-двигательного аппарата в общеобразовательном учреждении / И.Ю.Левченко. - Москва: Нестор-История, 2012.
12. Мозговой, В.М. Олигофренопедагогика. Основы олигофренопедагогики: учебное пособие для студентов средних учебных заведений / В. М. Мозговой И.М.Яковлева, А.А.Еремина. - Москва: Издательский центр «Академия», 2006.
13. Назарова, Н.М. Специальная педагогика. Под редакцией для студентов педагогических вузов Москва АСАДЕМА, 2000.
14. Плаксина, Л.И. Психолого-педагогическая характеристика детей с нарушением зрения: учебное пособие / Л.И.Плаксина. - Москва: РАО ИКП, 1999.
15. Речицкая, Е.Г. Сурдопедагогика / Е.Г.Речицкая. - Москва: ВЛАДОС, 2004.
16. Рудник, О.С. Коррекционная работа с аутичным ребенком / О.С.Рудник. - Москва: ВЛАДОС, 2021.
17. Соловьева, Т.А. Воспитание и обучение детей с нарушениями слуха (XX век) / Т.А.Соловьева. - Москва: ФГБНУ «Институт коррекционной педагогики», 2025.
18. Шевченко, С.Г. Диагностика и коррекция задержки психического развития у детей: пособие для учителей и специалистов коррекционно-развивающего обучения / С.Г.Шевченко. - Москва: АРКТИ, 2001.

19. Шолохова, М.А. ДЦП. Дошкольный возраст / М.А.Шолохова. - Москва: ВЛАДОС, 2017.

Pedagogik mahorat bo'yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.
3. X.Meliyev, O.Jamoldinova. K.Risqulova “Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati” Тошкент – 2021.
4. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”. Darslik. Tafakkur bo‘stoni nashriyoti. 2019.
5. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limning “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturi. Uchinchi nashri. Toshkent, 2026 yil.

Normativ-huquqiy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ-595-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2024.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 423-son Qarori, 2025 yil 8-iyul.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Sinovga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.